

## TURKIYA TA'LIM TIZIMI

**Unarova Mohichehra Saydulla qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiya ta'lim tizimining tuzilishi, bosqichlari va o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan jarayon tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat va xususiy ta'lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi ko'rib chiqiladi. Maqola ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar haqida umumiy tasavvur beradi.*

***Kalit so'zlar:** Turkiya talim tizimi, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim, davlat va xususiy maktablar, ta'lim islohotlari.*

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektar yig'ilishida quyidagicha fikr bildiradi: "Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur". Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun turli davlatlar bilan o'zaro tajriba almashish muhim.

Ko'pgina rivojlanayotgan davlatlar ichidan aynan Turkiya ta'lim tizimini ko'rib chiqamiz. Turkiya (turkcha: Türkiye), rasman – Turkiya Respublikasi (turkcha: Türkiye Cumhuriyeti) - G'arbiy Osiyo 97% ini tashkil etadi va Janubiy Yevropa 3% ini tashkil etadigan davlat. Turkiya ham Osiyo, ham Yevropa qit'asiga kiradi. Turkiyaning poytaxti – Anqara shahri. Davlat tili – Turk tili. Dini - Islom (98%) Maydoni – 783,562 km<sup>2</sup> (1,3% suv). Aholi soni 2024-yil hisobiga ko'ra - 86,099,039 kishi. Turkiya pul birligi – lira. Turkiya Respublikasi 81 ta viloyatlardan iborat. Turkiya 14 ta davlat bilan chegaradosh.

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim sifati har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ta'limga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi mamlakatlarni o'z ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqishga va muntazam takomillashtirishga undamoqda. Turkiya ham so'nggi o'n yilliklarda ta'lim sohasida izchil islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Maktablarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, o'quv dasturlarini yangilash va ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlari bilan Turkiya jahon tajribasidan munosib o'rin egallamoqda.

Turkiya ta'lim tizimi davlat tomonidan markazlashgan holda boshqariladi va Ta'lim vazirligi hamda Oliy ta'lim kengashi (YÖK) nazorati ostida faoliyat yuritadi. Ta'lim tizimi zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga moslashtirilgan bo'lib, ta'lim sifati va tengligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Turkiyada ta'lim maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim bosqichlaridan tashkil topadi. Maktabgacha ta'lim ixtiyoriy bo'lsa-da, bu bolalarning ijtimoiy va aqliy rivoji uchun juda muhimdir. Boshlang'ich va o'rta ta'lim esa majburiy bo'lib, umumiy hisobda 12 yilni tashkil etadi. Ushbu tizim "4+4+4" modeli asosida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga o'qish, yozish, matematika va asosiy fanlar o'rgatiladi. O'rta ta'lim bosqichida esa umumiy bilimlar chuqurlashtiriladi hamda kasbiy yo'nalishga tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar umumta'lim maktablari, kasb-hunar litseylari yoki ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari davlat va xususiy universitetlardan iborat bo'lib, bakalavr, magistratura va doktorantura bosqichlarini qamrab oladi. Universitetlarga kirish maxsus imtihonlar asosida amalga oshiriladi. Turkiya universitetlari xalqaro reytinglarda yaxshi o'rinlarni egallab, chet ellik talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Bundan tashqari, Turkiya ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim va innovatsion o'qitish usullariga katta e'tibor berilmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston va Turkiya ta'lim tizimini taqqoslaydigan bo'lsak, ko'pgina farqlarni sezishimiz mumkin. O'zbekiston va Turkiya ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Har ikki mamlakatda ta'lim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, yosh avlodni bilimli va raqobatbardosh tarbiyalashga qaratilgan. Shunga qaramay, ularning ta'lim tizimida o'xshashliklar va farqlar mavjud. Har ikki davlatda ham malakali kadr yetishtirib berish asosiy masala hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimi Ta'lim vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan boshqariladi. Ta'lim bosqichlari maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim majburiy bo'lib, 11 yil davom etadi. So'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Turkiyada esa ta'lim tizimi Milliy ta'lim vazirligi va Oliy ta'lim kengashi (YÖK) tomonidan boshqariladi. Ta'lim bosqichlari maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limdan iborat bo'lib, umumiy majburiy ta'lim 12 yilni tashkil etadi va "4+4+4" modeli asosida amalga oshiriladi. Turkiya ta'lim tizimi xalqaro standartlarga mosligi va universitetlarining nufuzi bilan ajralib turadi.

Har ikki davlatda ham davlat va xususiy ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi. O'zbekistonda xususiy maktablar va universitetlar soni ortib borayotgan bo'lsa, Turkiyada bu tizim ancha rivojlangan va keng tajribaga ega. Turkiya oliy ta'lim muassasalari xorijiy talabalarni jalb etishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Baholash va qabul tizimida ham farqlar mavjud. O'zbekistonda oliy ta'limga kirish asosan markazlashgan test sinovlari orqali amalga oshiriladi. Turkiyada esa talabalar oliy ta'lim muassasalariga milliy imtihonlar asosida qabul qilinadi. Bundan tashqari, Turkiyada akademik erkinlik va tanlov imkoniyatlari kengroq hisoblanadi.

O'zbekiston va Turkiya ta'lim tizimlari umumiy maqsadga — sifatli ta'lim berishga xizmat qiladi. O'zbekistonning ta'lim tizimi islohotlar bosqichida bo'lsa, Turkiya tajribasi orqali rivojlanmoqda. Har ikki mamlakat tajribasini o'rganish esa ta'lim sifatini yanada oshirishga yordam beradi. So'nggi yillarda mamlakatimiz va Turkiya o'zaro tajriba almashish uchun ko'pgina amaliyotlar o'tkazishmoqda. Bu amaliyotlar va almashinishlar bizning ta'lim tizimimizga ham yangiliklarni olib keldi va ko'pgina tajribalar olindi.

O'zbekiston va Turkiya ta'lim tizimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikki davlatda ta'lim jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi sifatida qaraladi. Ta'lim tizimlarining tuzilishi va boshqaruv

mexanizmlarida ayrim farqlar mavjud bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi bilimli, malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdir.

Turkiya ta'lim tizimi ko'p yillik tajribaga, aniq modellarga asoslanishiga va xalqaro standartlarga mos kelishiga ega. O'zbekiston ta'lim tizimi esa jadal islohotlar bosqichida bo'lib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiya tajribasidan o'quv dasturlarini diversifikatsiya qilishda, oliy ta'limda akademik erkinlikni kengaytirishda va xalqaro talabalarni jalb etishda samarali foydalanish mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda, O'zbekistonning milliy qadriyatlar va ta'limda ijtimoiy tenglikka yo'naltirilgan yondashuvi ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, har ikki davlat ta'lim tizimi o'zaro tajriba almashish orqali yanada takomillashishi mumkin. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirishga va yoshlarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar — O'zbekiston ta'lim tizimi haqida qisqacha tavsif va qonunchilik bazasi (Ta'lim to'g'risida Qonun). Ma'lumot PDF/Qonun manbalaridan olingan. Manba: <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/presidential-views-on-schooling>

2. Turkiya ta'lim tizimi asoslari — Turkiyada ta'lim tizimi, uning tuzilishi va tarixiy ildizlari haqida umumiy ma'lumot (slayd tavsifi). Manba: <https://soff.uz/product/tilshunoslik-turkiya-talim-tizimi?utm>

3. Turkiya va O'zbekiston o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik protokoli — Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik va ta'lim diplomatiyasi bo'yicha 2025-yilgi protokol. Manba: <https://www.meb.gov.tr/protocol-on-cooperation-in-the-field-of-education-between-turkiye-and-uzbekistan-signed/haber/38852/en?utm>

4. To'xtaboyev X., Qurbonov M. Qiyosiy pedagogika — 2016-yil, Toshkent, "Fan va texnologiya".

5. Xodjayev B. Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi — 2014-yil, Toshkent, "O'qituvchi".